

TURIZMDA TRANSPORT XIZMATLARINING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

Jo'rabekov Akobir Ziyodilla o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Turizm sohasida xizmatlar texnologiyasi va ularni tashkil etish” yo’nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nafaqat turizmda transport xizmatlarining tutgan o'rni balki so`nggi yillarda turistlar uchun yaratilgan transport xizmatlaridagi qulayliklar va o`zgarishlar haqida so`z boradi.*

Kalit so`zlar: *xavfsizlik, passajir, Uzairways, "havo-shou", pandemiya, individual turizm, platskart vagon, kupe vagon, "O'ztemiryo 'lyo 'lovchi", "Rent a car"*

Аннотация: В данной статье говорится не только о роли транспортных услуг в туризме, но и о удобствах и изменениях в транспортном обслуживании туристов, созданных за последние годы.

Ключевые слова: *безопасность, пассажир, Uzairways, «авиашоу», пандемия, индивидуальный туризм, вагон-платформа, вагон-купе, «Узтемирёлётучи», «Прокат автомобилей».*

Annotation: *This article not only talks about the role of transport services in tourism, but also about the amenities and changes in transport services created for tourists in recent years.*

Key words: *safety, passenger, Uzairways, "air-show", pandemic, individual tourism, flatcar carriage, coupe carriage, "Uztemiryolyolucchi", "Rent a car"*

Turizm bugungi kunda jadal rivojlanmoqda va shu bilan birligida insonlar hayotining bir qismiga aylanmoqda desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Sababi, turizm faqatgina insonlarga dam olish, sayohat qilish imkonini bermayapti aksincha u mamlakatlarning iqtisodiyotidagi turli jahbalariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, transport tarmoqlari, aloqa, yo'l qurilishi, mehmonxonalar, umumiy ovqatlanish korxonalari, kommunal xo'jaligi, maishiy xizmat ko'rsatish, servis sohasi, savdo tarmoqlari va hokazolar. Ayrim mamlakatlarda xalqaro turizm valyuta tushumlarining yagona manbai hisoblanadi. Uning sharofati bilan iqtisodiy taraqqiyot yuqori darajasi va xalq turmush farovonligi qo'llab -quvvatlanib turiladi. 26.04.2023 yilda muhtaram prezidentimizning "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Bu ham turizm sohasiga bo'lgan talab va e'tiborning oshib borayotganligidan dalolat beradi. Avvalo, turizmning rivoji bilan sayyoohlarning xavfsizligini ta'minlash borgan sari muhim va zarurat masala bo'lib qolmoqda. Hozirgi kunda turizm sohasida sayyoohlarni jo'natuvchi va qabul qilib oluvchi har bir mamlakat uchun sayyoohlarning dam olish paytlarida, transport harakati yo`nalishlarida ularning xavfsizligini ta'minlash chora tadbirlari har bir mamlakat

uchun oddiy, odatdagи hayotiy holda bo`lmog`i zarur. Xalqaro turizmda transportning tutgan o`rni beqiyos muhim bo`lib hisoblanadi. Ayniqsa pasajir transporti va transport kommunikatsiyalari sayyoohlar uchun ularni o`z uyidan aeroport yoki temir yo`l, avtomobil, dengiz, daryo suv yo`li vokzallariga, sayyoohlarni bir shahardan ikkinchi shaharga, vokzaldan mehmonxonaga, mehmonxonadan turistik manzillargacha qulay, xavf-xatarsiz holda olib borib qo`yishda yo`l ochadi. Xalqaro turizmni transport vositalarisiz umuman tasavvur qilib bo`lmaydi.

Pasajir tashuvchi transport vositalari bilan turizm sohasi o`rtasida o`zaro bog`liqlik mavjuddir. Transport vositalarining takomillashuvi, ya`ni zamonaviy qulay transport turlarining yaratilishi xalqaro turizmning dinamik holatda rivojlanishi bilan ifodalanadi. So`nggi yillarda xalqaro turizmda sayyoohlilikka talabning ortib borishi, transport tarmoqlarining qatnashishi, turistik almashinishni ta'min etishda va uni to`xtatib turishda asosiy omillardan biri bo`lib hisoblanadi.

Yilning ikkinchi Jahon sayyoohlilik barometri UNWTO sektorning tez tiklanishi 2023 yilgacha davom etganligini ko`rsatadi. Bu shuni ko`rsatadiki: Umuman olganda, xalqaro tashriflar 2023 yilning birinchi choragida pandemiyadan oldingi darajaning 80 foiziga yetdi. Dastlabki uch oyda 235 million sayyooh xalqaro miqyosda sayohat qilgan, Bu 2022 yilning shu davriga nisbatan ikki baravar ko`p. Turizm o`zining mustahkamligini ko`rsatishda davom etadi. 2022 yil uchun qayta ko`rib chiqilgan ma'lumotlarga ko`ra, 2021- yili 960 milliondan ortiq sayyooh xalqaro miqyosda sayohat qilgan, ya`ni pandemiyadan oldingi raqamlarning uchdan ikki qismi (66%) tiklangan.

2023-yilning 1-choragida mintaqalar bo`yicha tiklanish: Yaqin Sharq eng kuchli ko`rsatkichni 2019 yilda kelganlar sonidan (+15%) ko`p bo`lgan yagona mintaqqa sifatida ko`rdi va to`liq chorakda pandemiyadan oldingi raqamlarni birinchi bo`lib tikladi. Yevropa mintaqqa ichidagi kuchli talab tufayli pandemiyadan oldingi darajaning 90 foiziga yetdi. Afrika 88% va Amerika 85% ga yaqin 2019 darajasiga yetdi Osiyo va Tinch okeani mintaqasi pandemiyadan oldingi darajaning 54 foizi bilan tiklanishni tezlashtirdi, ammo bu ko`tarilish tendentsiyasi endi aksariyat yo`nalishlar, xususan, Xitoy qayta ochilganidan keyin tezlashmoqda.

Xalqaro sayyoohlarni soni ortib borishi bilan bирgalikda ularning ehtiyojlari ham ko`paymoqda. Ularga arzon va sifatlari xizmat ma`qulligini bilgan davlatlar xizmatlar sohasida qator tadbirlar olib bormoqda va turli xil yo`llar bilan o`zlariga jalb etmoqda. Masalan, Tailandda transport xizmatlari turistlar uchun keng qamrovli tanlovni taqdim etadi va o`z navbatida bu turistga ma`qul tanlovni topishga yordam beradi. O`zbekistonda ham transport xizmatlari kun sayin rivojlanib bormoqda. "Uzairways" aviakompaniyasi ham yo`lovchilarga turli xil ko`plab xizmatlar taqdim etmoqda, masalan, chiptani bron qilishda bepul, chipta klassi va parvoz davomiyligidan qat'i nazar, issiq ko'rpa va yostiqlar, Boeing samolyotlarida - "havo-shou" samolyotlarning joylashuvi va parvoz ma'lumotlarini ko`rsatish tizimi va boshqalar. Shu bilan bирgalikda O`zbekistonda temiryo`llar xizmati ham jadal o`sib

bormoqda. Hozirda temir yo'l Respublikamizning katta va markaziy shaharlaridan o'tadi. Toshkent markaziy vokzalidan har kuni "Afrosiyob" "Sharq", "Nasaf", "O'zbekiston" tezyurar poyezdlari, Toshkent janubiy vokzalidan esa viloyatlarga yo'lovchi poyezdlari qatnaydi.

"O'zbekiston" poyezdi go'zal Farg'ona vodiysi tomon harakatlanib Angren – Pop – Qo'qon – Marg'ilon – Andijon kabi shaharlarda to'xtab o'tadi. Qamchiq dovo ni orqali yangi temir yo'l liniyasining ochilishi va temir yo'llarning elektrlashtirilishi tufayli Buyuk Ipak yo'li shaharlari orqali sayyoohlilik yo'nalishlarini tashkil etish soddalashtirildi. Ilgari sayyoohlар Qamchiq dovo ni orqali avtomobil yo'li va Toshkent-Andijon, Toshkent-Namangan, Toshkent - Farg'ona havo qatnovi orqali yetib borishsa, hozirda esa temir yo'l liniyasining ochilishi sayyoohlilik agentliklariga turistlar guruhini qiziqarli sayohatlarga yuborish uchun transport imkoniyatlarini kengaytirish imkonini berdi.

Individual turizmni sevuvchilar uchun transportni tanlash nomenklaturasi ham ochib berilgan. Agar bu sayyoohlarning kichik guruhi bo'lsa, ular avtotransport, havo, temir yo'l turini tanlashlari yoki turli transport turlari bilan birlashtirilgan turni tashkil qilishlari mumkin. Masalan, Farg'ona vodiysi shaharlardan sayyoohlар sayohat dasturining boshida go'zal bog'lar, eski inshoatlar, keyinchalik ulug'vor tog'lar, g'ayrioddiy daryolar va go'zal Qamchiq dovonidagi qishloqlar manzarasidan bahramand bo'lishlari mumkin. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarga sayohatning navbatdagi bekatiga yo'l olgan sayyooh Qizilqum cho'lining gulzor bog'laridan tortib to oltin qumtepalarigacha bo'lgan manzaraning asta-sekin o'zgarib borayotganini tamosha qilishlari mumkin."Ichan-qal'a" tarixiy ob'ekti Xiva shahri hududida joylashgan ochiq osmon ostidagi muzey deb ataladi. Har kuni "Janubiy" vokzalidan "Toshkent-Xiva-Toshkent" yo'nalishi bo'yicha poyezd jo'naydi, u yotoq vagonlaridan (zaxiradagi o'rindiq, kupe, SV) iborat.

Platskart vagonlar 54 ta yotishdan iborat;

Kupe vagonlari 36 ta o'rindiqdan iborat;

SV (lyuks) vagonlari 18 ta o'rindiqdan iborat.

Ushbu poyezdning afzalligi shundaki, kechki payt yo'lga chiqadi, bu esa yo'lovchiga yo'lda dam olish imkonini beradi. Dam olish sayyoohga Vatanimizning tarixiy merosini yangi ishtiyoq bilan o'rganish imkonini beradi.

Ilgari temir yo'l hujjatlarini xarid qilish uchun eng yaqin chipta kassalariga borish kerak bo'lgan bo'lsa, endi chiptalarni elektron tarzda (Uzrailwaytickets yoki chipta.railway.uz sayti orqali) xarid qilish mumkin. Ushbu platformaning afzalligi, iqtisodiy samaradorlik, joylarni tanlashning yaqqol namunasidir. Yo'lovchi shaxsiy gadjet ekranida elektron chiptani ko'rsatishi va poyezdga chiqishi mumkin. "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ O'zbekiston aholisiga ham, xorijlik sayyoohlarga ham qulaylik yaratish maqsadida axborot texnologiyalari bo'yicha yangi imkoniyatlarni bosqichma-bosqich joriy etmoqda.

Bundan tashqari, 2018-yildan beri mamlakatimizning turistik shaharlari xususan, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlariда “Rent a car” xizmati yo`lga qo`yilgan. Ushbu xizmatdan foydalanish uchun passport va haydovchilik guvohnamasigina kifoya. Prezidentimizning tashabbusi bilan turizm obyektlariga olib boruvchi yo`llar infratuzilmasiga qo'shimcha 200 milliard so'm ajratish qaror qilindi bu esa kelgusida yo`lovchilarga qo'shimcha qulayliklar yaratadi.

UNWTOning so`nggi taxminlariga ko`ra 2030-yilgacha xalqaro sayyoohlar soni 1.8 milliardga yetishi kutilmoqda. Tabiiyki, ichki sayyoohlar soni esa bundan ancha yuqori bo`ladi taxminan 15.6 milliard. Bunday o'sish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy balki yangi ish o'rinnari yaratilishiga ham olib keladi. Biroq turizmda qo'llanilayotgan transport vositalaridan chiqqanidan turli xil zaharli gazlar esa atrof-muhitga salbiy ta`sir etmay qo`ymaydi. Bu esa kelgusida turizm oldida turgan asosiy xavflardan biri hisoblanadi.

Xulosa qiladigan bo`lsak, transport xizmatlarining turizmdagi roli beqiyosdir. Biroq ushbu xizmatlarni sifatini yanada yaxshilashimiz lozim. Albatta buning uchun malakali yosh kadrlarni tayyorlash bilan birgalikda xizmat ko`rsatayotgan xodimlar malakalarini oshirib qayta tayyorlov ishlari tez-tez olib boorish kerak. Garchi ushbu sohadan keladigan daromad yuqori bo`lishiga qaramay, atrof-muhitga yetkazilishi mumkin bo`lgan zararlarni oldini olish chora-tadbirlarini ham ishlab chiqish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamatqulov X.M., Tuxliyev I.S., Bektemirov A.B. “Xalqaro turizm” darslik. Samarqand-2008
2. B.Sh.Safarov, N.E Ibadullayev, M.I Daminov, A.A Karimov “Turizmda Transport Xizmatlari”. Toshkent-2019
3. www.uza.uz
4. www.uzairways.online
5. www.e-unwto.org